Moharram va hamkorlari [3] PV modullarini tozalash uchun suv va energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan tizimni taklif etib, oddiy suvdan foydalanish hamda suvni sirt faol moddalar bilan aralashtirib qo'llash samaradorligini tajribaviy ravishda taqqoslaganlar. Taklif etilgan tizim siqilmagan suv oqimiga asoslangan bo'lib, tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, faqat suvdan foydalanilgan holatda 45 kun davomida PV modullarining samaradorligi 50 % gacha kamaygan. Biroq suvga ionli va kationli sirt faol moddalar qo'shilgan holatda, ayni tizim va bir xil ob-havo sharoitida samaradorlik nisbatan barqaror saqlanib qolgan. Mualliflar bunday aralashma Misr iqlim sharoitida qo'llash uchun maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlaganlar.

Elnozahy va hamkorlari [4] issiq va quruq iqlim sharoitida PV modullarini suv yordamida tozalash va sovitishning ta'sirini tajribaviy jihatdan o'rganib, natijalarni sovitilmagan va tozalanmagan PV modullari bilan qiyoslaganlar. Tadqiqotda PV modulining orqa yuzasi haroratiga asoslangan avtomatik suv purkash tizimi qo'llanilgan. Ushbu tizim PV modullarining haroratini tashqi havo haroratiga yaqin darajagacha pasaytirgan va bir vaqtning o'zida ularning yuzasini tozalash imkonini bergan. Tajribalar natijasida PV modulining old yuzasi harorati 45,5 %, orqa yuzasi harorati esa 39 % ga kamaygani aniqlangan. Tadqiqot davomida tozalangan va sovutilgan PV modulining samaradorligi 11,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, tozalanmagan va sovutilmagan modulda bu ko'rsatkich 9 % bo'lgan.

Jiang va hamkorlari [5] cho'l hududlarida PV modullarida chang to'planishi jarayoniga asoslanib, ularni tozalash chastotasini aniqlash uchun matematik model ishlab chiqqanlar. Mazkur model changning cho'kish tezligi hamda to'plangan chang zichligi bilan PV modullari samaradorligining pasayishi o'rtasidagi bog'liqlik asosida shakllantirilgan va amaliy o'lchov ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan hudud sharoitida havodagi zarrachalar konsentratsiyasi taxminan 100 mg/m^3 bo'lganida va PV modullari ishlab chiqaradigan quvvat 5 % ga kamayganida, PV modullarini optimal tozalash oralig'i taxminan 20 kunni tashkil etishi aniqlangan.

Shamol va yog'ingarchilikka asoslangan tabiiy tozalash usullari PV modullarining yuzasini shamol va yomg'ir ta'siri orqali tozalashga asoslanadi. Yomg'ir suvi PV yuzasida to'plangan chang va ifloslantiruvchi zarrachalarni yuvib tushiradi, shamol esa yirik chang zarralarini uchirib ketishga yordam beradi [6]. Ushbu yondashuv, asosan, yog'ingarchilik tez-tez kuzatiladigan hamda shamol tezligi yuqori bo'lgan hududlar uchun mos keladi. So'nggi tadqiqotlar ushbu usul qirg'oqbo'yi hududlarida yoki tez-tez chang bo'ronlari kuzatiladigan cho'l hududlarida ham ma'lum darajada samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [7]. Biroq yog'ingarchilik kam kuzatiladigan quruq va changli hududlarda ushbu usulning samaradorligi nisbatan cheklangan bo'lishi mumkin.

Tabiiy tozalash tizimlarida PV modullari shamol va namlikning birgalikdagi ta'siri ostida tozalanadi. Jarayon asosan gravitatsiya kuchi hamda shamol va yomg'irning mexanik ta'siri orqali iflosliklarning PV yuzasidan siljib tushishiga asoslanadi. Ayniqsa, yog'ingarchilik yetarli bo'lgan hududlarda yomg'ir suvi tabiiy yuvuvchi vosita vazifasini bajaradi. Panelning og'ish burchagi ushbu tozalash mexanizmining samaradorligida muhim rol o'ynaydi, chunki katta burchaklarda chang zarralari gravitatsiya ta'sirida osonroq sirpanib tushadi. Shu sababli, tadqiqotchilar yog'ingarchilik kam bo'lgan hududlarda tabiiy tozalash yetarli natija bermasligini hamda PV modullarini ma'lum davrlarda qo'shimcha ravishda tozalash zarurligini ta'kidlaydilar [8] (2-rasm).



2-rasm. Shamol va yomg'ir asosida tozalash sxemasi

Zorrilla-Casanova va hamkorlari [9] tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hatto 1 mm dan kam yog'ingarchilik ham chang bilan qoplangan fotoelektrik panellarni (PV) samarali tozalashi va ularning normal ishlash holatini tiklashi mumkin. Tadqiqot natijalari yomg'ir yog'ishi natijasida kunlik samaradorlik

yo'qotishlari 4,4 % dan past darajagacha kamayishini ko'rsatgan. Biroq quruq mavsumlarda yog'ingarchilik kuzatilmaydigan davrlarda chang to'planishi PV modullarining kunlik samaradorlik pasayishini 20 % dan yuqori darajaga yetkazishi mumkin.

Tanesab va hamkorlari [10] Avstraliyaning Pert shahri iqlim sharoitida PV modullarining samaradorligidagi mavsumiy o'zgarishlarni o'rganganlar. Tadqiqot natijalari yomg'ir va shamol ta'sirida tabiiy ravishda tozalanadigan PV modullarining samaradorligi yil davomida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatgan. Eng katta samaradorlik pasayishi yoz va bahor fasllari oxirida kuzatilgan bo'lsa, kuz faslining oxiridan boshlab samaradorlik ortib, qish faslining oxirida eng yuqori darajaga yetgani aniqlangan. Mualliflar yomg'ir chang to'planishini kamaytirishda arzon va samarali tabiiy tozalash usuli hisoblanishini ta'kidlaydilar.


Paudyal va Shakya [11] Katmandu shahrida olib borilgan tadqiqotda chang to'planishining PV modullariga ta'sirini baholaganlar. Amaliy o'lchovlar natijalariga ko'ra, besh oy davomida to'plangan chang PV modullarining samaradorligini har kuni tozalangan panellarga nisbatan 29,76 % gacha kamaytirgan. Tadqiqot davomida eng katta chang zichligi panelning pastki qismida qayd etilgan bo'lib, uning miqdori 6711 g/m² gacha yetgani aniqlangan.

PV modullarining ish haroratini pasaytirish ularning elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, haroratning har 1 °C ga ortishi PV modullarining samaradorligini o'rtacha 0,4-0,65 % ga kamaytiradi, bu esa issiq iqlim sharoitida sezilarli energiya yo'qotishlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida PV modullarining haroratini ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan ish diapazonida ushlab turish va ortiqcha issiqlikni samarali olib tashlash uchun turli sovitish texnologiyalaridan foydalanish zarur. Shu maqsadda PV panellarining ishlash samaradorligini oshirish hamda ularning termik rejimini barqarorlashtirish uchun turli sovitish usullari qo'llanilmoqda [12].

PV modullarining ish haroratini pasaytirish uchun qo'llaniladigan sovitish texnologiyalari asosan ikki asosiy turga — faol va passiv sovitish tizimlariga bo'linadi. Faol sovitish tizimlari odatda nasoslar, ventilyatorlar yoki boshqa mexanik qurilmalar yordamida majburiy oqim hosil qilib, ortiqcha issiqlikni panel yuzasidan olib tashlaydi. Passiv sovitish tizimlarida esa issiqlik almashinuvi tabiiy konveksiya, issiqlik o'tkazuvchanlik yoki nurlanish jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Faol sovitish usullari yuqori sovitish samaradorligini ta'minlashi bilan ajralib turadi, biroq ular tashqi energiya manbasiga ehtiyoj mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunday tizimlarda sovituvchi muhitni — suv, havo yoki nano-suyuqliklarni — harakatga keltirish uchun nasoslar, ventilyatorlar yoki havo puflagichlardan foydalaniladi [88]. Natijada panel yuzasidan ortiqcha issiqlik olib tashlanadi va energiya ishlab chiqarish samaradorligi barqaror saqlanadi.

Suv bilan sovitish PV modullarida qo'llaniladigan faol sovitish usullaridan biri bo'lib, unda suv sovituvchi muhit sifatida ishlatiladi hamda nasoslar, purkagichlar, quvurlar va boshqa qurilmalar yordamida aylantiriladi. Suv asosidagi sovitish usullaridan biri sifatida purkagichli sovitish texnologiyasi keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuvda suv tomchilari PV yuzasiga yo'naltirilgan holda purkalib, ortiqcha issiqlikni samarali olib tashlashga yordam beradi hamda panel haroratini barqarorlashtiradi. Natijada PV modullarining ishlash ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Bunday tizimning samaradorligi purkagich turi, quvur diametri, suv oqimi sarfi hamda sug'orish rejimiga — avtomatik, uzluksiz yoki impulsli purkash — bog'liq bo'ladi.

Faol bug'lanishli sovitish usullaridan biri sifatida panellar yuzasiga suv purkash texnologiyasi qo'llaniladi (3-rasm). Nizetic va hamkorlari [13] maksimal quyosh nurlanishi sharoitida PV modullarining old va orqa tomonlarini suv purkash orqali sovitish ta'sirini o'rganishgan. Tadqiqot natijalari elektr quvvati 16,3 % ga, elektr samaradorligi esa 14,1 % ga oshganini ko'rsatgan. Old va orqa tomon bir vaqtning o'zida sovitilganda modul harorati sovitilmagan holatdagi 54 °C dan 24 °C gacha pasaygan. Natijada elektr energiyasi ishlab chiqarish 17 % dan ortiq oshib, modul harorati taxminan 25 °C gacha kamaygani aniqlangan (3-rasm).



3-rasm. Suv purkagich yordamida sovitishning tajriba qurilmasi




Rostami va hamkorlari [14] yuqori chastotali ultratovush tebranishlari yordamida fotoelektrik panellarning (PV) sovitish samaradorligini oshirish imkoniyatini tajribaviy jihatdan o'rganganlar. Issiqlik tashuvchi muhit sifatida atomizatsiyalangan CuO nano-suyuqlik (0,01-0,8 W/V) hamda sof suv qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari ultratovush yordamida suyuqlikni mayda tomchilarga ajratish PV modullarining sovitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan. Atomizatsiyalangan nano-suyuqlik bilan sovitish sof suv bilan sovitishga nisbatan samaraliroq ekani aniqlangan. Bundan tashqari, nano-suyuqlik konsentratsiyasining ortishi PV modulining maksimal quvvati hamda sovitish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sovitish texnologiyasi qo'llanilmagan holat bilan solishtirganda, 0,8 W/V konsentratsiyadagi nano-suyuqlikni atomizatsiya qilish PV haroratini 57,25 % ga kamaytirib, maksimal quvvatni 51,1 % ga oshirgan.

Mah va hamkorlari [15] tomonidan olib borilgan tadqiqotda tom ustiga o'rnatilgan, taqsimlangan generatsiya rejimida ishlayotgan PV modullariga suv plyonkasi orqali sovitish mexanizmi integratsiya qilingan. Tajribalar ushbu yondashuv PV modullarining old va orqa yuzalari o'rtasidagi termik zo'riqishni kamaytirishini hamda turli panellar orasida haroratning notekis taqsimlanishini bartaraf etishini ko'rsatgan. Shuningdek, optimal 6 l/min sovitish suvi sarfi va 1150 W/m² quyosh nurlanishi sharoitida, 260 W nominal quvvatli har bir PV modulida elektr quvvat ishlab chiqarish 32 W ga (taxminan 15 %) oshgan. Natijada har bir PV modul uchun soatiga 0,0178 kVt·soat sof energiya yutug'i ta'minlangan.

Bevilacqua va hamkorlari [16] PV modullarining orqa yuzasiga qo'llanilgan majburiy ventilyatsiya hamda purkagichli sovitishning uch xil turining uzoq muddatli samaradorligini baholaganlar. Kuchli quyosh nurlanishi kuzatilgan kunlarda ushbu sovitish tizimlari PV modulining orqa yuzasi haroratini 26,4 °C gacha pasaytirishi mumkinligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari modul yuzasi bo'ylab haroratning nisbatan bir tekis taqsimlanishini ham tasdiqlagan. Purkagichli sovitish tizimi ayniqsa samarali bo'lib, avgust oyida uning foydali ish koeffitsiyenti 14,3 % ni tashkil etgan, bu esa nazorat PV modulining 12,7 % lik ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Eng samarali ishlagan tizimda elektr energiyasi ishlab chiqarishning oylik ortishi dekabr oyida 1,4 % dan iyun oyida 8,6 % gacha yetgan. Butun tadqiqot davri bo'yicha maksimal umumiy yutuq 6,1 % ni tashkil etgan. Samaradorlik tahlili purkagichli sovitish tizimi may-oktyabr oylarida kun davomida 14,5 % dan yuqori konversiya samaradorligini saqlab qolganini ham ko'rsatgan.

Hadipour va hamkorlari [17] boshchiligidagi tadqiqot guruhida PV modullarining samaradorligini oshirish va sovitishda suv sarfini kamaytirish maqsadida impulsli purkash rejimiga ega suv sovitish tizimi ishlab chiqilgan. Impulsli purkash tizimining samaradorligi uzluksiz purkash tizimi hamda sovitilmagan panel bilan taqqoslangan, shuningdek, yangi sovitish texnologiyasini joriy etishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi ham baholangan. Natijalarga ko'ra, sovitilmagan panelga nisbatan uzluksiz purkash orqali sovitilganda maksimal elektr quvvati 33,3 % ga, impulsli purkash rejimida esa 27,7 % ga oshgan. Umuman olganda, suv asosidagi sovitish texnologiyasi qo'llanganda quvvat o'sishi 25,9 % gacha yetgani aniqlangan.

PV modullarini bug'lanish orqali sovitishga oid tadqiqotlarning aksariyati tajribaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, PV ishlashini umumlashtirilgan nazariy model asosida baholash nisbatan kam uchraydi. Shu sababli Chea va hamkorlari [18] quyosh kollektorlarining ishlashini baholashda qo'llaniladigan yondashuvga o'xshash eksperimental model ishlab chiqib, PV modulining termik xususiyatlari, umumiy issiqlik yo'qotish koeffitsiyenti, optik samaradorligi, ish harorati hamda ishlab chiqariladigan elektr quvvatini aniqlashni maqsad qilganlar. Modelda umumiy samaradorlik hamda tashqi havo harorati bilan sovituvchi suyuqlik harorati o'rtasidagi farqning quyosh nurlanishiga nisbati baholangan. Ushbu tadqiqotda orqa yuzasida bug'lanish yuzasi va suv oqimi mavjud bo'lgan PV moduli tajribadan o'tkazilgan. Natijalar oddiy PV moduliga nisbatan o'rtacha umumiy va sof oylik elektr energiyasi ishlab chiqarish mos ravishda 7,04 % va 4,47 % ga oshganini ko'rsatgan. Jazirama va quruq iqlim sharoitiga ega Uargla (Jazoir) hududida esa PV samaradorligi yanada oshib, o'rtacha umumiy va sof oylik quvvat ishlab chiqarish mos ravishda 8,62 % va 6,48 % ga ortgani aniqlangan. Tajribaviy qurilmaning fotosurati 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Sovitilgan va sovitilmagan PVlarining tajriba qurilmalari

Soliyeva [19] tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston iqlim sharoitida fotoelektrik panellar (PV) samaradorligining yuqori harorat ta'siri ostida sezilarli darajada pasayishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda faol va passiv sovitish texnologiyalarining afzalliklari tizimli ravishda tahlil qilingan. Muallif passiv sovitish usullari (havo konveksiyasi, PCM materiallari) hamda faol sovitish texnologiyalari (suv aylanishi, PV/T tizimlari) yordamida PV modullarining haroratini pasaytirish orqali elektr quvvatini 10-20 % gacha oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, grafen asosidagi nano-suyuqliklar va mini-kanallar kabi innovatsion sovitish yondashuvlari yuqori issiqlik uzatish samaradorligiga ega ekani qayd etilgan. Tadqiqot natijalari sovitish tizimlari O'zbekistonning issiq va qurg'oqchil hududlarida PV modullarining samaradorligini barqarorlashtirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Abilfayziev va hamkorlari [20] tomonidan olib borilgan tadqiqotda PV modullarini havo va suv yordamida sovitish usullarining energiya samaradorligiga ta'siri eksperimental sharoitda qiyosiy tahlil qilingan. Toshkent sharoitida o'tkazilgan tajribalar natijalari suv yordamida sovitilgan PV modullarining maksimal chiqish quvvati taxminan 42 W ni tashkil etib, havo yordamida sovitilgan variantga (38,5 W) nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatgan. Mualliflar suvli sovitish texnologiyasi nafaqat elektr samaradorligini oshirishini, balki qo'shimcha ravishda foydali issiqlik energiyasini olish imkonini ham yaratishini ta'kidlaydilar. Tadqiqot natijalari issiq iqlim sharoitida PV modullarining samaradorligini oshirishda suvli sovitish texnologiyalari istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanini tasdiqlaydi.

M.N. Tursunov va hamkorlari [21] fotoelektr-termal (PV/T) modullar samaradorligini oshirish maqsadida suvli issiqlik kollektorining ikki xil turini — hujayrali polikarbonat hamda egiluvchan polietilen quvur asosidagi konstruksiyalarni — eksperimental jihatdan taqqoslaganlar. Tadqiqot natijalari har ikkala kollektor turi PV modullarining haroratini samarali pasaytirishini hamda natijada ochiq zanjir kuchlanishi va chiqish quvvatining oshirishini ko'rsatgan. Shuningdek, polietilen quvur asosidagi kollektor issiqlikni samaraliroq yutishi sababli suv haroratining yoz mavsumida 48 °C gacha yetishini ta'minlagani aniqlangan. Iqtisodiy tahlil natijalari ushbu variantning 20-30 % arzonroq ekanini hamda mexanik barqarorligi yuqori ekanini ko'rsatgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalari suv yordamida PV modullarini tozalash va sovitish ularning optik o'tkazuvchanligini tiklash, ish haroratini pasaytirish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini 10-30 % gacha oshirish imkonini berishini ko'rsatadi. Purkagichli va bug'lanishli sovitish texnologiyalari yuqori quyosh nurlanishi sharoitida ayniqsa samarali bo'lib, PV modullarining haroratini 20-30 °C gacha pasaytirishi mumkin. Tabiiy tozalash usullari (shamol va yog'ingarchilik ta'siri) energiya sarfini talab qilmaydigan va iqtisodiy jihatdan qulay yechim sifatida qaraladi, biroq qurg'oqchil hududlarda ularning samaradorligi nisbatan cheklangan bo'lishi mumkin.

Suv asosidagi sovitish tizimlarining ayrim cheklovlari ham mavjud bo'lib, ular asosan suv sarfi, qo'shimcha energiya iste'moli hamda ekspluatatsiya jarayonining murakkabligi bilan bog'liq. Shunga qaramay, issiq va changli iqlim sharoitida suvga asoslangan tozalash va sovitish texnologiyalari PV modullarining barqaror ishlashini ta'minlashda istiqbolli yechimlar qatoriga kiradi. Shu sababli keyingi bosqichlarda suv resurslaridan tejamkor foydalanishni ta'minlaydigan tomchilatib sovitish tizimlari hamda sovituvchi suvni qayta ishlatishga asoslangan innovatsion yondashuvlarni o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari fotoelektrik panellar (PV) samaradorligiga harorat va chang to'planishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yuqori harorat PV modullarining fotoelektrik konversiya samaradorligini kamaytiradi, chang va turli iflosliklarning to'planishi esa quyosh nurlanishining panel yuzasiga yetib borishini cheklab, ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmini kamaytiradi. Shu sababli PV modullarini samarali tozalash va sovitish tizimlarini joriy etish quyosh energetikasi tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, suvga asoslangan sovitish va tozalash usullari PV modullarining ish haroratini sezilarli darajada pasaytirib, ularning elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini 10-30 % gacha oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, purkagichli sovitish, suv plyonkasi orqali sovitish hamda nano-suyuqliklar asosidagi sovitish texnologiyalari yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga, shamol va yog'ingarchilik ta'siriga asoslangan tabiiy tozalash usullari energiya sarfini talab qilmasligi bilan ajralib turadi, biroq quruq va changli hududlarda ularning samaradorligi nisbatan cheklangan bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari kelgusida PV panellarini sovitish va tozalash jarayonida suv resurslaridan tejamkor foydalanishga asoslangan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, tomchilatib sovitish, impulsli purkash hamda sovituvchi suvni qayta ishlatishga asoslangan tizimlar PV modullarining samaradorligini oshirishda istiqbolli yo'nalishlar sifatida qaraladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H. Almukhtar, T. T. Lie, W. A. M. Al-Shohani, T. Anderson, Z. Al-Tameemi. Comprehensive review of dust properties and their influence on photovoltaic systems: Electrical, optical, thermal models and experimentation techniques. *Energies* (Basel), 16(8), 2023. – 3401.
2. H. A. Kazem, M. T. Chaichan, A. H. Al-Waeli, K. Sopian. A review of dust accumulation and cleaning methods for solar photovoltaic systems. *Journal of Cleaner Production*, 276, 2020, 123187.
3. K. A. Moharram, M. S. Abd-Elhady, H. A. Kandil, H. El-Sherif. Influence of cleaning using water and surfactants on the performance of photovoltaic panels. *Energy Conversion and Management*, 68, 2013, pp. 266–272.
4. A. Elnozahy, A. K. A. Rahman, A. H. H. Ali, M. Abdel-Salam, S. Ookawara. Performance of a PV module integrated with a standalone building in hot arid areas as enhanced by surface cooling and cleaning. *Energy and Buildings*, 88, 2015, pp. 100-109.
5. Y. Jiang, L. Lu, H. Lu. A novel model to estimate the cleaning frequency for dirty solar photovoltaic (PV) modules in desert environments. *Solar Energy*, 140, 2016, pp. 236-240.
6. C. D. Love, S. B. Shah, J. L. Grimes, D. W. Willits. Transpired solar collector duct for tempering air in North Carolina turkey brooder barn and swine nursery. *Solar Energy*, 102, 2013, pp. 308-317.
7. M. R. Poole, S. B. Shah, J. L. Grimes, M. D. Boyette, L. F. Stikeleather. Evaluation of a novel, low-cost plastic solar air heater for turkey brooding. *Energy for Sustainable Development*, 45, 2018, pp. 1-10.
8. L. Yu, S. B. Shah, M. T. Knauer, M. D. Boyette, L. F. Stikeleather. Comprehensive evaluation of a landscape fabric-based solar air heater in a pig nursery. *Energies* (Basel), 14(21), 2021, 7258. <https://doi.org/10.3390/en14217258>.
9. J. Zorrilla-Casanova, M. Piliouline, J. Carretero, P. Bernaola, P. Carpena, L. Mora-Lopez, M. Sidrach-de-Cardona. Analysis of dust losses in photovoltaic modules. 2011, pp. 2985-2992.
10. J. Tanesab, D. Parlevliet, J. Whale, T. Urme. Dust effect and its economic analysis on PV modules deployed in a temperate climate zone. *Energy Procedia*, 100, 2016, pp. 65-68.
11. B. R. Paudyal, S. R. Shakya. Dust accumulation effects on efficiency of solar PV modules for off-grid purpose: A case study of Kathmandu. *Solar Energy*, 135, 2016, pp. 103-110.
12. S. K. Pathak, P. O. Sharma, V. Goel, S. Bhattacharyya, H. Aybar, J. P. Meyer. A detailed review on the performance of photovoltaic/thermal systems using various cooling methods. *Sustainable Energy Technologies and Assessments*, 51, 2022. <https://doi.org/10.1016/j.seta.2021.101844>.
13. S. Nizetic, D. Coko, A. Yadav, F. Grubisic-Cabo. Water spray cooling technique applied on a PV panel: The performance response. *Energy Conversion and Management*, 108, 2016, pp. 287-296.
14. Z. Rostami, M. Rahimi, N. Azimi. Using high-frequency ultrasound waves and nanofluid for increasing the efficiency and cooling performance of a PV module. *Energy Conversion and Management*, 160, 2018, pp. 141-149.
15. C. Mah, B. Lim, C. Wong, M. Tan, K. Chong, A. Lai. Investigating the performance improvement of a photovoltaic system in a tropical climate using water cooling method. *Energy Procedia*, 159, 2019, pp. 78-83.
16. P. Bevilacqua, R. Bruno, N. Arcuri. Comparing the performances of different cooling strategies to increase photovoltaic modules electric output in different meteorological conditions. *Energy*, 2020. <https://doi.org/10.1016/j.energy.2020.116950>.
17. A. Hadipour, M. R. Zargarabadi, S. Rashidi. An efficient pulsed-spray water cooling system for photovoltaic panels: Experimental study and cost analysis. *Renewable Energy*, 164, 2021, pp. 867-875.
18. T. Chea, T. Deethayat, T. Kiatsiroat, A. Asanakham. Experiment and model of a photovoltaic module with evaporative cooling. *Results in Engineering*, 19, 2023, 101290. <https://doi.org/10.1016/j.rineng.2023.101290>.
19. Z. N. Soliyeva. O'zbekiston iqlim sharoitida quyosh fotoelektrik modullariga sovutish tizimini joriy etish samaradorligini baholash. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, maxsus son*, 2024, 281-287-betlar.
20. Ш. Н. Абилфайзиев, С. Ф. Тошпўлатов, Р. Н. Абилфайзиев. Фотоэлектрик батареяларни ҳаво ва сув ёрдамида совутишда энергия самарадорлиги таҳлиллари. *Муқобил энергетика*, 4(07), 2022, 41–46-бетлар.
21. M. N. Tursunov, H. Sabirov, R. B. Alikulov, T. Z. Akhtamov, U. R. Kholov, M. M. Eshmatov. Development and testing of various heat collector methods for cooling photovoltaic-thermal batteries. *International Journal of Transport and Technological Machines*, 3, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100